

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MANTIQUIY FIKRLASHGA O'RGATISH

Umarov Xusniddin Egamboyevich

Guliston davlat pedagogika insituti

Katta o'qituvchisi

+998 99 052 06 68

Maxmudova Sabina

Guliston davlat pedagogika insituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashga o'rgatish, o'rgatish usullari, turlari, ushbu jarayonda pedagogning o'rni, tafakkurni kengaytirish to'g'risida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *mantiq, mantiqiy fikrlash, mantiqiylik, tafakkur, mantiqiy ketma-ketlik, mantiq doirasi, PIRLS dasturi.*

Абстрактный. *В данной статье говорится об обучении учителей начальных классов логическому мышлению, методах обучения, видах, роли педагога в этом процессе, расширении мышления.*

Ключевые слова: *логика, логическое мышление, логичность, мышление, логическая последовательность, логическая структура, программа PIRLS.*

Abstract. *This article talks about teaching elementary school teachers to logical thinking, teaching methods, types, the role of the pedagogue in this process, expanding thinking.*

Key words: *logic, logical thinking, logicality, thinking, logical sequence, logic framework, PIRLS program.*

Bugun kitob o'qigan bitta bola ertaga televizor ko'rib o'tirgan o'nta bolani boshqarishi mumkin.

SH.M.Mirzoyoyev

Davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog'liq. Shu bois, ta'lim tizimini takomillashtirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. Shu jumladan so'nggi yillarda O'zbekistonda ta'limga oid ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan va amalga oshirilishi kutilayotgan ushbu islohotlar



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022.28.01 Farmoni asosida qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da belgilab qo'yilgan. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi qonunda" aks ettirilgan. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi" ning to'rtinchi ustuvor yo'nalishida "Sifatli ta'lim -tarbiya masalasi doimiy e'tibor markazida bo'lishi" ta'kidlangan.

Bolalarning bilim olishlariga poydevor qo'yiladigan eng asosiy davr, boshlang'ich 1-4-sinfda ta'lim olayotgan davrlaridir. O'quvchilarining boshlang'ich sinfdagi bilimlari kelajakda oladigan bilimlariga zamin yaratadi. Shunday ekan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim olish jarayonlariga katta e'tibor qaratish lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashga o'rgatish muhimligi bilan bir qatorda Xalqaro baholash tizimi PIRLS dasturida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday fikrlash kabi mantiqiylik ham vazifalarni bajarishda ma'lum bir yosh bosqichida shakllana boshlaydi. Vaqt o'tishi bilan bu mantiqiy qobiliyatlarni yuqori darajada o'zlashtirish bo'lib, bu odamga o'z faoliyatida muvaffaqiyat qozonish, kasbiy vazifalarni samarali bajarish va kundalik muammolarni yengish imkonini beradi. Mantiqiy fikrlashni oshirishga door bir nechta usullarni ko'rib chiqamiz.

Matn asosida mantiqiy fikrlashga o'rgatish. Hozirda boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn va u asosida bajariladigan topshiriqlarni ko'rishimiz mumkin. Bunda o'quvchiga taqdim etilgan va matn asosida testlar bo'lishi mumkin. Ushbu jarayonda o'quvchi matn bilan tanishib chiqishiga vaqt ajratiladi. O'quvchi matn bilan tanishib chiqqandan so'ng, ushbu matn asosidagi testlar va topshiriqlarni bajaradi. Ushbu topshiriqlar matndagi izchillik va mantiqiy bog'liqlikni o'zida mujassam etgan mantiqiy tahlil qilish va mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar bo'ladi. Bajarilgan topshiriqlar tekshirilibgina qolinmay muhokama qilinadi. O'quvchi ma'lum bir javob to'g'riligini emas, balki nima uchun uning javobi to'g'ri emasligini anglashi lozim. Ushbu jarayonda o'quvchidagi mantiqiy tahlil qilish o'sadi.

Hozirgi kunda ko'p tilga olinayotgan "muammoli ta'lim" ham bilim oluvchilarning aqliy faolligini oshirish, mustaqil ijodiy izlanish, mantiqiy fikrlashni oshirish, o'zi uchun yangi bilimlarni kashf etishda katta ahamiyat kasb etadi. Muammoli ta'limda muammoni hal etish shartli ravishda uch bosqichga bo'linadi:

- aniqlash bosqichi;
- anglash bosqichi;
- fikrlash bosqichi.

Aniqlash bosqichida o'quvchilarda mavjud bo'lgan tushunchalar aniqlab olinadi va ularning diqqati muammoga jalb qilinadi. Ular muammoni o'rganishadi. Anglash



bosqichida esa asosiy maqsad o'qish jarayonining dinamikasini ta'minlash, yangi o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirishdan iborat. Bunda qo'yilgan muammoning mohiyatini anglab yetish va hal etish nazardan tutiladi. Fikrlash bosqichida muammoning yechimi chiqarilib, fikr-mulohazalar bildiriladi. O'quvchilarni fikrlashga jalb etish uchun ularga " Bu haqda qanday o'ylaysiz?", "Qanday yangi fikrlar keldi?", " Fikringizni asoslay olasizmi?" kabi savollari bilan murojaat qilish samarali sanaladi.

Mantiqiy o'yinlar krasvord, mantiqiy ketma-ketlik (bir qator tavsiya etilgan narsalarning ortiqcha miqdorini topish yoki rasmlarning mantiqiy turkumini yaratish), mantiqiy aloqani topish (ikkita ob'ekt o'rtasidagi o'xshashlikni aniqlash), ortiqchasini topish kabi o'yinlar nafaqat bolani mantiqiy fikrlashga o'rgatadi, balki, uning tafakkur olamini ham kengaytiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun eng samaralilari bu rasm asosidagilaridir. Ular o'quvchining diqqatini uzoq vaqt o'zida saqlab tura oladi.

Lekin shuni unutmaslik lozimki, mantiqiy fikrlash insonning miyasidagi ma'lumotlarga borib taqaladi. Insonning miyasidagi ma'lumotlar, ilgari yechilgan yechimlar insondagi mantiqni tashkil etadi. Shunga ko'ra kimdadir mantiq yuqori kimdadir esa pastroq bo'lishi mumkin. Mantiqiy fikrlashni o'rganish uchun eng avvalo ilmiy ma'lumotlar, ilmiy kitoblarni ko'proq o'qish lozim. Buni esa aynan boshlang'ich sinfdan boshlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.
<http://lex.uz//uz/docs/-5841063>
2. A'zam Xoliqov. Pedagogik mahorat. Tafakkur bo'stoni. Toshkent-2011.
3. Aliyev A. Pedagogik madaniyat: metod va mahorat qirralari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2007.

